



ТИАМЕ

Men sevgan jurnal.

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani.





Fan- O‘zbek tili

O‘qituvchi- Mamarajabova Iroda Fayzullayevna



REJA:

- ▶ 1. Men sevgan jurnal. 
 - ▶ 2. Iste'dodli jurnalist 
 - ▶ 3. “Yulduzli tunlar” romanidan parcha






Men sevgan jurnal

Ijtimoiy-siyosiy va badiiy bezakli jurnal «Guliston» mamlakatimizdagi mashhur nashrlardan biridir. Uning dastlabki soni 1925-yilda «Yer yuzi» nomi bilan nashr etilgan. Turli yillarda unga Ibrohim Rahim, Asqad Muxtor, Mirmuhsin, Tilab Mahmudov, Azim Suyun, Minhojjiddin Mirzo kabi taniqli ijodkorlar muharrirlik qilgan.



TIIAME




Jurnalda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor singari atoqli adiblarning badiiy asarlari, ilmiy-publitsistik maqolalari chiqib turgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 70yillarida «Guliston»da sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari», Rasul Gamzatovning «Mening Dog'istonim» asarlarining bosilishi uni respublikaning eng nufuzli ommaviy jurnallaridan biriga aylantirgan.



TIIAME



Mustaqillik yillari jurnal uchun yuksalish davri bo‘ldi. Uning sahifalarida madaniyat sohasiga oid materiallar asosiy o‘rin egallaydi. Unda madaniy meros va milliy qadriyatlar, mumtoz adabiyot, teatr, musiqa, tasviriy san’at va xalq ijodiyoti, madaniy-ma’rifiy muassasalar va boshqa qardosh xalqlar hayoti haqida qiziqarli maqolalar berib boriladi.



TIIAME



TILAME

LUG'AT

muharrir – редактор	nashr – издание
nufuzli – влиятельный	tasviriy san'at – изобразительное искусство
mashhur – известный	xalq ijodiyoti – народное творчество
qardosh – брат, приятель	qiziqarli – интересный

Bilib oling!




Ayiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplar voqea-hodisalarning navbatmanavbat yoki ulardan biri sodir bo‘lishini bildiradi va *goh, goho, dam, yo, yoki, ba’zan, ba’zi* kabi ayiruv bog‘lovchilari bilan bog‘lanadi. Bunday bog‘lovchilar gapning boshida takrorlanib keladi va takrorlanib qo‘llangan ayiruv bog‘lovchilarining ikkinchisidan oldin vergul qo‘yiladi. Ayiruv bog‘lovchilari yakka qo‘llansa, tinish belgilari qo‘yilmaydi.

Masalan: Uzoqdan *dam* miltiragan chiroqlar ko‘rinar, *dam* yana atrofni qorong‘ilik bosar edi. *Yo* siz keling, *yo* men boray.



1-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Ayiruv bog‘lovchilarini topib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

1.Ob-havo goh sovub, goh isib ketar edi. 2.Kechasi dam qor yog‘ib, dam yomg‘ir yog‘ib turdi. 3.Ba’zan ashula yangrar, ba’zan allaqayerdan dutorning tovushi eshitilardi. 4.Yo u va’dasida tursin, yo ishni bizga bersin. 5.Sen bilan gaplashishga na vaqtim bor, na kayfiyatim! 6. Bular qishloq bolalarimi, yo shahar bolalari ajratib bo‘lmaydi. 7. Yo sen fikringdan qaytasan, yo u.






ISTE'DODLI JURNALIST



TIIAME

Sizlarni, ya’ni yoshlarning tarbiyasida o‘zining ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan maqolalari, hikoyalari, eshittirishlari bilan yosh ijodkorlarga ustozlik qilayotgan filologiya fanlari nomzodi Hulkar Hamroyeva bilan tanishtirmoqchimiz.






TIIAME

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanalining taniqli ijodkorlaridan biri Hulkar Hamroyeva «Madaniy-ma’rifiy, badiiy eshittirishlar» muharririyatida katta muharrir lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. U har kuni ikki soat to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatiladigan «Hamroh» ma’rifiy-musiqiy eshittirishining muallif va boshlov chilaridan biri sifatida elga tanildi. Bu dasturning «Bugunning bolasi», «Navoiy gulshani», «Kitobdan yaxshi hamroh yo‘q» kabi sahifalarida ijod va ilm olamidagi yangiliklar, jamiyatdagi bolalar tarbiyasi va yoshlар ma’naviyatiga oid dolzarb muammolar ko‘tarildi.



Hulkar Hamroyeva «Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi» mavzusida dissertatsiya yoqladi va filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. U bugungi kunda «Bedorlik» va «Ijod zavqi» eshittirishlarini tayyorlaydi. Taniqli jurnalistning «Qizlar uchun ajoyib tuhfa», «Milliy universitet filolog olimalari», «Ozod domla o‘gitlari», «Akademik G‘anijon Abdurahmonov» kabi kitob va monografiyalari nashr etilgan. Iste’dodli jurnalist Hulkar Hamroeva hozirgi kunda yosh muhbirlarga ijod yo‘llarida rahbarlik qilmoqda.






ТПАМЕ

Маҳоратли ёзувчи Пиримқул
Қодировнингушбу асари ўзбек
адабиётининг энг сара тарихий
романлари сирасига киради.


Унда Мовароуннахрдек
салтанатнинг парчаланиб
кетиши, Темурийлар
сулоласининг инқирози,
ҳокимиятга эришиш илинжида
тахт талашиб, бир-бирлариға
қилич кўтарган оға-ини, тоға-
жиянларнинг фожиавий
қисмати акс эттирилган.



Роман воқеалари орқали ўқувчи тарихда Темурийлар ўртасидаги низолар, фитна, фисқ-у фасод туфайли юзага келган қонли урушлар, аёвсиз хунрезликлар оқибатида беҳад қонхўр беклар зулмидан силласи буткул қуриган халқнинг ғоят ночор аҳволи ва уйюшқоқликдан бехабар Темурийларни Шайбонийхон қанчалар осон маҳв этгани билан танишади.



ТПААМЕ



ТПАМЕ

Асарнинг бош қаҳрамони мирзо
Бобур одамларидағи бемеҳрлик, бир-
бирини күролмаслик, худбинлик,
хиёнат сингари жирканч иллатлар
билин ғоят эрта, ўн икки ёшда тахтга
ўтирганида рўбаро бўлди.

Тақдирнинг аянчли зарбаларидан
зада бўлган шоҳнинг куйган юраги-
шоир қалби қаландарликни ихтиёр
этгани ажаб эмас. Асар мутолааси
давомида бутун умр ватан ишқида
ёниб, соғинч билан ўртаниб,
“Жонимдин ўзга ёри вафодор
топмадим...” дея изтироб чеккан
бобокалонимиз дарди китобхон
қалбини ларзага солади.



UYGA VAZIFA.

Ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklar haqida
ma'lumot yozing.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!